



## **AXLOQIY TARBIYA- BARKAMOL INSONNI TARBIYALASH MEZONI.**

**Zokirova Ochaxon Turdaliyevna**

*Rishton tuman 1-sون kasb – hunar maktabi o`qituvchisi.*

Axloqiy tarbiya mazmuni deganda, qo`yilgan maqsad va vazifalar bilan bog`liqlikda ta`lim oluvchilarning egallashi lozim bo`lgan bilim, malaka, e`tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Axloqiy tarbiya jarayonida bolalarda his-tuyg`ular va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g`oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi. Axloqiy tarbiya asosida bolalarda miliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg`or madaniyatni shakllantirish, xuquqiy madaniyat- sog`lom dunyoqarashning mu'him omili ekani to`grisidagi ma'lumotlarni ko`paytirish kabi tamoyillarga tayanadi. Milliy qadryatlarning umumiyl vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo`naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo`lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Axloqiy tarbiya jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo`naltirilganligi;
- ko`p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzlucksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi; biroq kafolatlanishi zarurligi;
- ikki tomonlamalilik;

Axloqiy tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan barqaror aloqalar yig`indisidir. Axloqiy tarbiya jarayonida asosiy vazifa ta`lim - tarbiya berish, maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarda bilim, ko`nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, dunyoqarash va axloqiy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir. Axloqiy tarbiy - bola ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o`zgartiradigan kuchli vositadir. Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylilik bo`lishiga

rioya qilish kerak. i. Chunki tizimlilik faqat mактабгача та'lim yoshidagi bolalarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga da‘vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo‘lmagan kishilar deydi.

Bolalarga ta'lim tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko‘rshimiz mumkin.

Bolalarni axloqiy jihatdan yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, odob-axloq vositalari qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, shaxsni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarning axloqiy tarbiyasi haqida gapirar ekanmiz, albatta ularning ta'lim muassasi va oila hamkorligi masalasiga ham to’xtab o’tish kerak. Bolalarga axloqiy tarbiya berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko’proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak. Axloqiy tarbiya bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo’lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi.